



XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

YANGI TOMDI QURG'ONI +998 94 375 1465 r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2024-yil 29-noyabr

VII-2-08-5-75-K/24

Tomdi tumani

Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining doimiy komissiyalari tarkibini tasdiqlash to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19 va 24-moddasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 31-oktyabrdagi KQ-846–IV-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'rtta doimiy komissiyalari tuzilsin:

- *Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya;*

- *Korrupsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy soha, toshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiya;*

- *Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiya;*

- *Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya.*

2. Doimiy komissiya a'zolarining ro'yxatlari 1 - 4 ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining 2022-yil 5-avgustda “Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining ayrim doimiy komissiyalarining tarkibiga o'zgartirishlar kiritish va ularning yangilangan komissiya a'zolarini tasdiqlash to'g'risida”gi VI-40-123-5-75-K/22-sonli qarorining 1-8 ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



UMAROV
ORZUMUROD
FAYZULLAYEVICH

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-2-08-5-75-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**“Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari
bo‘yicha” doimiy komissiyasi tarkibi**

Doimiy komissiya raisi		
Tishkanbayev Talgat Maxatovich		<i>14-Jiriq saylov okrugidan saylangan deputat, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi Moliyaviy ko‘mak dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha bosh mutaxassisi</i>
Doimiy komissiya a‘zosi		
Ugizbayeva Amankul Kurbanovna	-	<i>5-Roxat saylov okrugidan saylangan deputat, 6-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori</i>
Bayanasov Layis Moldaxmetovich	-	<i>2-A.Navoiy saylov okrugidan saylangan deputat, O‘zbekiston Respublikasi faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi Tomdi tumani bo‘limi raisi</i>

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-2-08-5-75-K/24 -son qaroriga
2-ilova

“Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha” doimiy komissiyasi tarkibi

Doimiy komissiya raisi		
Mirzayev Yeshpulat Butabekovich	-	<i>15-Utemurat saylov okrugidan saylangan deputat, Mahallalar uyushmasi Tomdi tuman bo‘limi boshlig‘i</i>
Doimiy komissiya a‘zosi		
Qayipova Svetlana Qojamqulovna	-	<i>9-Qulimbet saylov okrugidan saylangan deputat, 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori</i>
Norov Ilxomjon Shavhiddinovich		<i>10-Aldabergen saylov okrugidan saylangan deputat, Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori</i>

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-2-08-5-75-K/24 -son qaroriga
3-ilova

“Korrupsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tarkibi

Doimiy komissiya raisi		
Mirzagaliyev Janadin Mirzagaliyevich	-	<i>4-Navro‘z saylov okrugidan saylangan deputat, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash sho‘basi bosh mutaxassisi</i>
Doimiy komissiya a‘zosi		
Djanabergenova Saltanat Kuanishovna	-	<i>1-Aytekebi saylov okrugidan saylangan deputat, 12-umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi</i>
Aldanov Yelibay Toqbergenovich		<i>13-Keregetau saylov okrugidan saylangan deputat, “Keregetov” ovul fuqarolar yig‘ini raisi</i>

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-2-08-5-75-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**“Reglament va deputatlik odob-axloqi masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya
tarkibi**

Doimiy komissiya raisi		
Yeshniyazova Jankul Umirzaxovna	-	<i>12-Keriz saylov okrugidan saylangan deputat, Tibbiyot birlashmasi, davolash ishlari bo‘yicha boshliq o‘rinbosari</i>
Doimiy komissiya a‘zosi		
Usenova Natasha Abayevna	-	<i>3-Yangi Tomdi saylov okrugidan saylangan deputat, 1-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori</i>
Abuov Raximjan Mirzaxmetovich	-	<i>8-Ayakkuduk saylov okrugidan saylangan deputat, 3-umumiy o‘rta ta’limi maktab o‘qituvchisi</i>